

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKAT SIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

SAMARQAND FILIALI

KOMPYUTER INJINIRINGI FAKULTETI

“DASTURIY INJINIRING” KAFEDRASI

5330500 - “Kompyuter injiniringi (AT-Servis)” yo’nalishi bo’yicha bakalavr
akademik darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Qishloq qurilish bank mijozlari uchun kredit qarzlarini kuzatib borish va
to’lovlarini amalga oshiruvchi tizimini ishlab chiqish

Ish kafedraning 2018-yil

_____dagi №_____-sonli

majlisda muhokama qilindi va

himoyaga tavsiya qilindi

Kafedra mudiri

_____dots. Qarshiyev A.B.

“ ” _____ 2018-yil

Bajardi: 406-guruh talabasi

_____Abdujabborov S.

Ilmiy rahbar:

_____Iskandarova S.

SAMARQAND-2018

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I-bob. Respublikada bank tizimining o'ziga xos xususiyatlari.....	4
1.1. Bank tizimining iqtisodiy mohiyati, xususiyatlari va turlari.....	4
1.2. Tijorat banklarining tashkiliyu tuzilishi va ularning funksiyalari.....	11
1.3. Bankalar barqarorligi va moliyaviy mustahkamligini oshirishda bank xizmatlarining ahamiyati.....	17
II-bob. «Qishloq Qurilish Bank» OATB Samarqand viloyati mintaqaviy filialining barqarorligini va ishonchliligi ta'minlash tizimining tahlili.....	25
2.1. «Qishloq Qurilish Bank» OATB Samarqand viloyati mintaqaviy filialining moliyaviy faoliyati taxlili.....	25
2.2. Bank tizimini rivojlantirishda kredit salohiyati va kredit berish tartibini tahlili.....	36
2.3. Bank resurslarini tashkil qilish va ularni moliyalashda investitsiyalarni rolini kuchaytirish.....	44
III-bob. «Qishloq Qurilish Bank» mijozlari uchun kredit qarzlari kuzatib borish va to'lovlarni amalga oshiruvchi tizim tavsifi	51
3.1. Axborot tizimi tushunchasi.....	51
3.2. Dastur tavsifi va undan foydalanish.....	55
3.3. Kompyuterdan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalari.....	60
Xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati	
Ilovalar	

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Ushbu BMIning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda jamiyatning barcha sohalariga zamonaviy axborot texnologiyalari keng miqyosda joriy etilmoqda. Shu jumladan jamiyatning iqtisodiy yani bank amaliyotlarida shu jumladan kreditlash masalalarida ham muxim masala sifatida qaralmoqda. Mening BMI ishimda Qishloq qurilishi bankining kredit bo'limiga mo'ljallangan tizim ishlab chiqilgan.

Masalaning qo'yilishi. Bank kredit bo'limi va kredit nazoratini amalga oshiruvchi axborot tizimini ishlab chiqish.

Ishning maqsad va vazifasi. BMIning maqsadi Qishloq qurilishi bankining kredit bo'limiga axborot texnologiyalarini joriy etgan holda soha faoliyatini avtomatlashtirish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

- sohaga oid terminlarni o'rganib chiqish va ular haqida axborotga ega bo'lish;
- sohaga faoliyatini taxlil etish jarayonlari va modellarini tahlil qilib chiqish;
- parametrlarni klassifikatsiyalash masalasini kompyuter yordamida bajarish dasturiy majmuani loyihalash;
- dasturiy majmuani kodlashtirish, sozlash va sinovdan o'tkazish;

Ishning amaliy ahamiyati. Ushbu yaratilgan dasturiy majmua orqali insonlarning ortiqcha mehnat va vaqt sarfining kamaytirilishiga yordam beradi.

Ishning tuzilishi. Ushbu BMI kirish qismi, 3 ta bob, xulosa qismi, adabiyotlar ro'yxati hamda ilova qisimlaridan iborat. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishning maqsad va vazifalari, ishning ilmiy va amaliy ahamiyati, ishning tuzilish va olingan asosiy natijalar qisqacha bayon etilgan.

I-BOB Respublikada bank tizimining o'ziga xos xususiyatlari

1.1. Bank tizimining iqtisodiy mohiyati, xususiyatlari va turlari.

Bank tizimi orqali bozor iqtisodiyoti sharoitida, iqtisodiyotni boshqarishning moliyaviy sohasida markaziy bo'g'in nomini oynaydigan bo'ladi. Bozor iqtisodiyotida hukumron mavqega ega bo'lgan, tovar, pul muomilasini boshqarish va u orqali tushum xo'jalik faoliyatini boshqarish muammosini olg'a suradi.

Shu sababli banklar, moliya-kredit jarayonlarini boshqarish markazlari sifatida faqat bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z ahamiyatlarini to'la namayon etadilar, moliyaviy tizimni markaziy bo'g'iniga, pul muomilasini tashkil qilish, uning barqarorligini taminlashning bosh sifatchisiga ayyalanadilar.

Shuni unutmaslik kerakki, banklar orqali pul saqlaydigan joy, uni tarqatadigan yoki kredit beradigan kassa emas. Banklar iqtisodiyotni boshqarish va tuzilomaviy siyosatni amalga oshirishning qudratli qurolidir. Ma'lumki, bunday siyosatni moliya, kapital zaxiralarini qayta taqsimlash yo'li bilan ustivor yo'nalishlarda bo'lgan ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'ektlar yaratiladi. Banklar indi mablag'larni moliyaviy resiruslarni kreditlar tarzida, ya'ni yaxshi foyda va samara beradigan markazlarga, sohalarga, mintaqalarga yo'naltiriladi.

Kreditlashtirish boirasida puxta oylanmagan siyosat yurtimizning su'niy ravishda o'rnatilgan past foiz sitafkalari, mablag'larini havoga sovirishga, davlat byudjetida katta kamomatlarga va oxir oqibatda halokatga infilatsiyaga olib keladi. Banklar davlat aparati iskanjasida, bo'lgan sharoitida, moliyaviy o'zini-o'zi boshqarish o'rnini, majburiy taqsimlash boshqaruv, ko'p xollarda esa real pul mablag'larini taqsimlash egallaydi. Bularning hammasi mamlakatning qashshoqlashuviga olib keladi. Mashhur multimellioder Genri-Fordning fikriga ko'ra qashshoqlik ko'p jihatdan uning yuklarini joydan-joyga tashish tufayli sodir bo'ladi. Uzluksiz yotayotgan qor uyumi kabi, katta pul to'dasini hech bir maqsadsiz joydan-joyga ko'chirish va bunda tobora qashshoqlashib borayotganini sezmaslik mumkin. Demak zamonaviy bozor munasabatlariga asoslangan bank tizimini yaratish bozor islohatlarini, iqtisodiy qayta qurishni asosiy yo'nalishidir.

Chunki, hozirgi zamonda samarali faoliyat yuritayotgan bank tizimiga ega bo'lmisdan turib, samarali ishlaydigan iqtisodiyotni yaratib bo'lmaydi.

Bank tizimiga banklardan tashqari ayrim iqtisoslashgan moliyaviy institutlar ham kiradi. Ular bank maqomiga ega bo'lmislarda, bank operatsiyalarini amalga oshiradilar. Bundan tashqari bank tizimiga bank infratuzilmasini tashkil qiluvchi, pul kredit institutlarining ish faoliyatini ta'minlovchi boshqa muassalari ham kiradilar.

Banklar mohiyati qanchalik bir xil bo'lmisin, mol sotishda ularning ko'p turlari faoliyat olib boradi. Eng avvalo emissiya kerak. Emissiya banklar naqd pul belgilarini muomilaga chiqaruvchi markaziy banklardan iborat.

Bajaradigan operatsiyalarining harakatiga qarab, universal va ixtisoslashgan banklarni farqlamoq kerak. Universal bank bir o'zi mijozlarga rang-barang operatsiya va xizmatlarni ko'rsatishga qodir bo'ladi. Universallikning boshqa qirralari ham bor, u faoliyatni cheklanmaganligini ham bildirish mumkin. Bunday bank faoliyatini xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha xizmat ko'rsatadigan mijozlarning tarkibi operatsiyalar soni va hajmi, hamda mintaqalar bo'yicha ham xizmat doirasi chegaralanmagan bo'ladi. Ya'ni universal bank ko'pchilik tarmoqlarda kredit bersa, ixtisoslashgan bank ko'pincha xalq xo'jaligining bir tarmog'i yoki tarmoqchasiga korxonalar turkumiga xizmat ko'rsatadi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lmagan mamlakatlarda bank tizimining o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Bank tizimi tushunchasi oddiygina talqin qilganda, u o'z ichiga banklar va bankka xos funksiyalarini bajaruvchi no bank muassalarini oladi.

Tashkiliy jihatdan bir bo'g'inli va ikki bo'g'inli bank tizimlari mavjud. Rivojlangan davlatlarda ikki darajali bank tizimi mavjud bo'ladi. Unda birinchi bo'gin Markaziy banklar bo'lib, ular mamlakatdagi pul muomalasini tashkil va nazorat qilish rolini bajaradilar.

Ikkinchi bo'ginda esa o'zlari mustaqil bo'lgan, ammo, Markaziy bank nazorati ostida faoliyat olib boruvchi tijorat va ixtisoslashgan banklar hamda banklarga xos funksiyalarni bajaruvchi nobank muassalar kiradi.

Bir bo'g'inli tizimda Markaziy va tijorat banklari bir xil darajada teng huquqli agentlar rolini bajaradilar, ya'ni barcha banklar davlatning banki bo'lib, Markaziy bank bo'limlari sifatida ish olib boradilar. Bunday tizim iqtisodiy rivojlangan totalitar rejimlar hukmronlik qilayotgan mamlakatlarga qodir.

Bank tizimi hususiyatlari haqida biz yuqorida gapirib uning asosiy elementi bo'lgan banklar va ularning turlari haqida umumiy tushunchalar bergan edik. Rivojlangan mamlakatlar bank tizimiga xos bo'lgan yana bir hususiyati shundaki ularda banklar bilan bir qatorda bank bo'lmagan ammo banklarga xos funksiyalarni bajaruvchi ixtisoslashgan moliya-kredit muassalari va pochta jamg'arma institutlari ham va mavjud bo'ladi. Bunday moliyaviy tashkilotlarda bo'sh bank tizimi deyiladi. Ular ma'lum toifadagi mijozga, odatda bir yoki ikkita o'ziga xos moliyaviy xizmat turini taklif qiladilar. Ularning faolyati ko'pincha moliyaviy bozorning kichikroq bir segmentiga qaratilgan bo'ladi.

Uzoq yillar davomida jamiyatning rivojlanishi va unga mos tovar-pul munosabatlarning o'sib takomillashib borishi banklarning operatsiyalari va ko'rsatadigan xizmatlari ko'lamining kengayib borishiga olib kelgan. Davlat, jismoniy va yuridek shaxslarning manfaatini muofiqlikda olib borish davlat va jamiyat a'zolarining pul mablag'lariga bolgan talablarini qondirgan holda davlatning iqtisodiy jihatdan o'sishi va barqarorligini ta'minlash maqsadida banklar o'rtasida ular bajaradigan funksiya va operatsiyalar ko'lami taqsimlana borgan, ya'ni davlat tomonidan, davlat manfaatlarini himoya qilgan holda faolyat ko'rsatuvchi banklar a'lohida jamiyat a'zolari bilan ishlovchi banklar yoki yuqoridagi ikki yo'nalishi ham o'zida mujassamlashtirilgan banklar shakillana borgan.

Hozirgi zamonda umuman qabul qilingan tizim bo'lib, ikki pog'onali bank tizimi xizmat qiladi va u quyidagi tarmog'ni o'z ichiga oladi:

1. Markaziy bank
2. Tijorat bank.

Markaziy bank banklarning bankki sifatida bank va moliya muassalari foalyatining barqarorligini ta'minlaydi. Birinchi navbatda, u ko'pchilik moliya

instituti, banklarning faoliyati moliyaviy jihatda muammolar yuzaga kelganda, banklar omonatchilar oldidagi o'z majburiyatlarini bajara olmay qolgan holda moliyaviy sarosima bo'lishini oldini olish kerak. Bu masalani hal qilish uchun Markaziy bank, avvalo, tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini ikkinchi pog'ona-tijorat banklar tizimiga nisbatan bajaradi. Markaziy bank majburiyatiga tijorat banklarning har kunlik faoliyatiga aralashish kirmaydi. Markaziy bank tijorat banklarning meyoriy boshqarilishi, ularning to'lovga qobiliyatligi va likvidligini taminlanishini kuzatib borishi va omonatchilar manfaatlarini himoya qilish kerak. Bularning barchasi nazorat meyorlari tizimi yordamida amalga oshirilib tijorat banklari pog'onasiga o'tkaziladi.

Markaziy bank pul siyosatini o'tkazish yo'li bilan muomiladagi pul muassasi ustidan nazorat amalga oshiradi va inflyatsiya, ishsizlikning past darajasini taminlash va iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish kerak. Bunda markaziy bank emission muomiladan olish huquqiga ega bo'ladi. Markaziy bank ya'ni tijorat banklari o'rtasida hisob kitoblarni olib borishga imkoniyat yaratadi.

Bank tizimining ikkinchi pog'onasi bu-xalq xo'jaligi va aholiga xizmat ko'rsatishdagi bosh bo'gin bo'lgan mustaqil tijorat banklarining tarmog'idir. Ular yuridek va jismoniy shaxslarga shartnoma asosida turli xisob kitob va kredit operatsiyalarini amalga oshirish va xizmatlar ko'rsatish hamda boshqa turli bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq operatsiyalarini aqmalga oshiradilar.

Har bir mamlakatda tijorat banklarining soni turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, Shvitsiyada davlat banki 40ga yaqin tijorat banki faoliyatini nazorat qiladi xolos, AQSh da 13000ga yaqin tijorat banklari mavjud. Shvitsariyada esa har 10000 aholiga bittadan moliya muassasi to'g'ri keladi. Rossiyada 1995 yil boshiga _____siyalari bajarishga monopollashuvidavlat bankini boshqaruv va nazorat organiga aylantirgan edi.

Ma'muriy buyruqbozlik davrida kredit munosabatlari iqtisodiyotni boshqarishda shakllar yuzaki xarakterga ega edi. Kredit resurslari va pul resurslari harakatini ham boshqarish ham nazorat qilish davlat bankining monopol ta'siri

ostida edi. Bular o'z navbatida sobiq ittifoq bank tizimining tor doirada rivojlanishiga olib keladi.

Markazlashtirilgan bank boshqaruvi asosida faoliyat ko'rsatayotgan respublika banklari tor doirada pul resurslari harakatini boshqarish, lekin uni boshqaruvchiligini nazorat qilish sobiq ittifoq davlat banki qo'lida edi.

Iqtisodiyotni boshqarishning markazlashtirilgan usulidan voz kechish va bozor iqtisodiyoti tomon dastlabki qadamlar qoyilishi bilanoq markazlashtirilgan bank tizimining qator kamchiliklarini royobga chiqardi. Bu esa bank tizimida tub o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etardi.

Bank tizimini qatadan tashkil etish 1987 yilda boshlandi. Bu jarayonda bank tizimining tashkiliy tuzilmsini o'zgartrish, banklarning rolini oshirish, iqtisodiy tizimning rivojlanishiga ularning ta'sirini kuchaytirish, kredit haraktdagi iqtisodiy dastaklarga aylantirish ko'zda tutilgan edi. Qayta tashkil etish jarayonining birinchi bosqichi davlat banklarning yangi tuzilmasini tashkil etish bilan bog'lanadi. Qayta tashkil etish modeli quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish: markaziy emission bank va bevosita xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi bevosita davlat banklari;
- ixtisoslashtirilgan davlat banklarni to'laligicha xo'jalik hisobiga va o'z-o'zini moliyalashga o'kazish;
- iqtisodiy tizim doirasida yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo'ldigan kredit munosabatlari uslublari va shkalalarini takomillashtirish va boshqalar.

Bank tizimini takomillashtirish jarayoni davomida davlat banki o'zining kredit tizimidagi markaziy o'rnini saqlab qolgan holda korxona va tashkilotlarga kredit berish va ular bilan hisob-kitoblarni olib borish funksiyasini maxsus ixtisoslashgan banklarga topshiradi. Ya'ni bankning emission faoliyatini kreditlash faoliyati bilan birga olib borish funksiyasiga chek qoyiladi. Davlat banki ixtisoslashgan banklar faoliyatini boshqaruvchi boshqa barcha banklar uchun bir xil pul kredit siyosatini olib burvchi muassasaga aylanadi. Bank tizimining takomillashtirilishi natijasida vujudga kelgan maxsus ixtisoslashgan banklar: Qishloq qurulish banki, Kommunal qurulish va sotsial taraqqiyot banki,

Agrosanoatbank, Tashqi iqtisodiy faoliyat banki, Jamg'arma banki tashkil qilinib xo'jaloiklar bilan banklar o'rtasidagi aloqalri tobora yaqinlashtirildi, ixtisoslashtirilgan davlat banklari o'zlarida ma'lum darajada boshqaruvchilik rolini saqlab qoldilar.

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar mahkamasining "Banklar tizimini isloh qilish chora tadbirlari to'g'risida"gi 1999 yildagi 19-yanvaradgi qaroriga asosan bank tizimini barqarorligini safarbar etish, iqtisodiyotni kredit bilan ta'minlashga banklarning ishtirokini kengaytirish bank xizmatlari sohasida vazifalar belgilab berildi. 1991-2000 yillar mobaynida yuzaga kieltirilgan bank tizimini yanada xalqaro andozolarga yaqinlashtirish maqsadida bank tizimini erkinlashtirilish va isloh qilish chora tadbirlarining boshlanishi bank tizimini rivojlanishining 4-bosqichiboshlanganligini ko'rasatadi. Bu bosqich O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora tadbirlari to'grisida"gi 2000 yil 21-martdagi farmoni va Vazirlar Mahkamasining Bank tizimini isloh qilishga doir qo'shimvha chora tadbirlar to'g'risida"gi 2000 yil 24-martdagi qarori o'zaro qabul qilish bilan boshlandi. Bu hujjatlarga asosan quyidagilar bu bosqichning asosiy vazufalari qilib belgilandi:

- Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish, tijorat banklari mustaqilligini oshirish;
- Bank tizimi va uning bo'g'inlari rivojlanishini rag'batlantirish;
- Bo'sh turgan mablag'larni bankga jalb qilish va omonatchilarning manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish;
- Banklarning investitsiya jarayonlarining faol ishtirokchilariga aylantirish
- Banklarning mijozlar bilan o'zaro manfaatlilik, sheriklilik munosabatalrini shakllantirish;
- Aholining moliya tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish ;
- Xorijiy banklar va boshqa moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish va valyuta munosabatlarini erkinlashtirish, kengaytirish kabi vazifalar belgilanadi.

2011 yilga qadar bank tizimini takomillashtirish maqsadida ko'pgina qarorlar qonunlar qabul qilinmoqda. Bular albatta kelajakda o'z samaradorligini ko'rsatadi. Bank tizimida bo'layotgan o'zgarishlar albatta respublikamiz rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

1.2 Tijorat banklarining tashkiliyu tuzilishi va ularning funksiyalari

Banklar boshqarilishi va barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi o'lchamlari sifatida quyidagi omillar kiradi:

- sotsial siyosiy vaziyat mavjud hukumat barqarorligi ta'siri, moliyaviy iqtisodiy va sotsial siyosat zamon talablariga moslashtirilib borilishi ma'muriy huquqiy tuzilmalardagi barqarorlik yoki sotsial keskinlik, siyosiy yo'nalishi;
- umum iqtisodiy holat-iqtisodiyot real shubasining imkoniyatlari, ishlab chiqarish quvvatlari yangilanishi hamda safdan chiqishi, tovar ishlab chiqaruvchilar raqobatdoshligi, mamlakat to'lov balansi saldosi (eksport, import) resurslart tarmoqdan-tarmoqqa o'tish imkoniyatlari investitsiyalar (sarmoyalar) kelishi, ketishi;
- moliya bozoridagi ahvol-bank omonatlarini jalb etish boyicha foiz stavkasi, pul bozori daromadliligi, qimmatli qog'ozlar daromadliligi, milliy valyutaning ayriboshlash kursi, valyutaga bo'lgan talab taklif hajmi, valyuta birjasidagi operatsiyalar, pul emissiyasi, pul qadrsizlanishi su'ratlari hamda shunday qadrsizlanishi borasidagi taxminlar, davlat qarzi boyicha xizmat ko'rsatish, oltin valyuta rezervi hajmi, pul massasi taklifmahsulotlar raqobati;
- kredit muassasasining ichki barqarorligi strategiyasi va emissiyasi bor yo'qligini xodimlar professional malakasini bank menejmenti sifatini sarmoya yetarligini aks ettiruvchi o'lchamlarini qamrab olishi mumkin.

Bank barqarorligini boshqarishning umumiy tarkibiy qismlari:

1. Bankning sarmoya bilan bogliq barqarorligini boshqarishi. U bankning o'z sarmoyasi hajmlari bilan belgilanadi. Bank o'z sarmoyasi hajmlari qaytarilishim to'g'risidagi talablarni qondirishi uchun yetarli hajmdagi pul resurslari ko'zda tutilmagan zarar va qarzlar, ularni qoplash, bank rivojlanishini moliyalash fors-major (tushunmovchilik) ko'rib chiqilmagan vaziyat yuzaga kelganda tegishli hatti-harakatlar qilishi, doimiy o'zgaruvchi tashqi shart-sharoitlarga moslashish uchun rezerv bo'lishini ta'minlaydi.

2. Bankning tijorat bilan bog'liq barqarorligini boshqarish. Barqarorlikning bu turi asosini tijorat banki munosabatlari infrastrukturasiga kirishib kelish darajasi

tashkil etadi. Bular xususan davlat bilan o'zaro munosabatlar (tegishli aloqalar darajasi va mustahkamligi) banklararo munosabatlardagi ishtiroki butun iqtisodiyotning bank sohasi uchun tizim tashkil etish ahamiyati mamlakatdagi moliyaviy oqimlar ulushi ustidan nazorat kreditorlar, mijozlar va omonatchilar bilan munosabatlar sifati, sarmoyasi bilan eral sarmoya to'g'risidagi aloqa yaqinligi, tijorat banklarining sotsial ahamiyatini, aktivlar va xususiy omonotlar asosiy ulushi yagona kredit munosabati homiyligida jamlanishi kabilardir.

3. Bankning funksional barqarorligini boshqarishda quyidagilar asos bo'ladi:

- tijorat banki ixtisoslashgan bank o'zi tanlagan bank mahsulot turlarini samaraliroq boshqarish imkonini beradigan tor doiradagi xizmatlarga ixtisoslashuvi;

- tijorat bank vazifalari kengashi yoki uning universallashtirish aksariyat mijozlar ularning bank mahsulotlariga bo'lgan barcha talablarini bir bankda qondirilishini afzal ko'rishlari natijasida barqarorlik to'g'risida paydo bo'ladigan tasavvur shunday kengayishi yoki universallashtirish uchun zamin hozirlaydi.

Tijorat bank barqarorligini boshqarishga yondashuvlardan har biri o'z afzallik tomonlari va kamchilliklari bor:

- bank ixtisoslashuvi pul resurslari jalb etilishi strukturasi diversifikatsiyalash hamda bitta yirik mijozga qaram bo'lib qolmaslik imkonini beradi, lekin ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va doirasi kengaytirilishi ishnim tashkil etish hamda bankni boshqarish masalalari haddan tashqari murakkablashtirib ketishiga olib keladi. Buning natijasida bozor muhiti ehtiyojlarini sezish qobiliyatidan mahrum bo'ladi, bankning barqarorligi va raqobatdoshligi susayadi.

Bank o'z strategiyasiga erishish yoki o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida muayyan ishlarni amalga oshiradi, xizmatlar ko'rsatadi.

Bankning tashkiliy tuzulishi va uni boshqarish ham asosiy maqsadga xizmat qiluvchi ana shu vazifalarga mos kelishik zarur. Tijorat banki faoliyatini tashkiliy tuzulish hamda u bajarayotgan maxsus bank xizmatlari doirasida atributga soluvchi funksional texnologik xizmatlar hujjatlar bunday banklar tashkiliy-tarkibiy

barqarorligini eng muhim o'lchamidir. Barqarorlikning bu turini bank moliyaviy barqarorligini boshqa iqtisodiy tarkibiy qismlari tavsifini uyg'unlashtiruvchi aosiy umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar belgilab beradi. Bular: bankning o'z mablag'alari hajmi tuzilishi, daromad va foyda darajasi, bankning o'z sarmoyasidan foyda olish meyorli likvidligining yetarliligi, o'z sarmoyasi multiplikativ samaradorligi hamda bank qo'shimcha qiymatini vujudga keltirishi. Ko'p tarmoqli va keng tarqalgan universal bankga aylanishini ta'minlash u8chun o'zaro bog'liq hatti-harakatlaramalga oshirilishi zarur.

Bular quyidagilar:

1. O'z tuzulishini mijozlarning makro ehtiyojlariga yo'naltirish va ularni segmentlash
2. bankning o'z biznesi funksional tashkil etilishini bankdagi ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish uchun qayta ko'rish
3. Mijozlar to'g'risidagi keng qamrovli ma'lumotlar bazasi axborot tahlil materiallari bilan ta'minlash.

Bank tashkiliy tuzulishini mijozlarga yo'naltirish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. bankning strategik maqsadlarini, hamda tarkibiy-tashkiliy etilishini belgilab olish maqsadida bank operatsiyalri bozorini segmentlash
2. bank tashkiliy tuzulishini yangi segmentlarga yo'naltirish
3. bank tashkiliy tuzulishining bank mahsulotlari hamda xizmatlari o'z kuchlari bilan ishlab chiqarishini manfaatdorligi borasida muvozanatga erishish, shuningdek boshqalar mahsulotlari va xizmatlaridan foydalanish masalalarini hal etish.

Bank operatsiyalari bozorini segmentlayotganda banklar qoida tariqasida o'zlarida avvaldan vujudga kelgan tashkiliy hamda funksional tuzulishiga asoslanadilar. Bu esa bankni bank mahsuloti mintaqa chizmasi boyicha yo'naltirilishi imkonini beradi. Shunday qilib, bank o'zini bozor ehtiyojlariga yo'naltirishda cheklab qoyadi va u orqali o'z barqarorligini zaiflashtiradi.

1. bank faoliyatini dasturlash bank mahsuloti mijoz chizmasidan kelib chiqib aniq dasturli maqsadni shakllantiradi.

2. Bank faoliyatini rejalashtirish kredit mahsulotining dasturiy maqsadlariga mos keladigan miqdor o'lchamlarini ishlab chiqish, faoliyatini rivojlantirish oralig'da o'zgarib borishi kerak bo'lgan bank kredit o'lchamlari quyidagilarni o'z sarmoyasi miqdori o'z sarmoyasi yetarliligi, aktiv va passiv operatsiyalar portfeli vaqt o'tishi bilan o'zgarishining yo'l qoyish mumkin bo'lgan o'lchamlari, aktiv va passiv operatsiyalar tarkibi, bank sarmoyasining multipikatsiyalovchi va boshqalar.

3. Axborot tahlili materiallari bilan ta'minlash. Bank mijozlari bilan konkret operatsiya yoki bitimni qayd etuvchi birlamchi hujjatlar uning asosini tashkil etadi. Ya'ni buxgalteriya o'tkazilishi emas, balki bitim birlamchi hujjatlar uning asosini tashkil etadi. Ya'ni buxgalteriya o'tkazilishi emas, balki bitim birlamchi axborot bo'g'ni hisoblanadi.

4. Iqtisodiyot va moliya bank faoliyati o'lchamlarida asosiy ravishda belgilangan meyoriy cheklashlar hamda qoyilgan asosiy maqsadli dasturdan chetga chiqilishiga olib chiqish, mumkin bo'lgan tasodifiy omillar ustidan nazorat, shuningdek bank dasturi bajarilishi darajasiga baho berish.

5. Texnologiyalar tashqi muhit ehtiyojlarini aks ettiradigan funksional texnologik hujjatlarni ishlab chiqish. Shuningdek funksional texnologik hujjatlar bank operatsiyalarning va xizmatlarning amaldagi regmenti bilan bog'liq.

6. Marketing-tashqi muhit ehtiyojlarini aniqlashva indagi o'zgarishlarni monitoring qilish.

7. Nazorat-ma'muriy faoliyat boshqaruvchi ta'sirlarga operativ moslashish jarayonida xizmat ko'rsatishni va o'z ichiga oladi.

8. Ekspertiza ma'muriy faoliyat bo'lib, u tashqi muhit ta'sirlariga operativ moslashish jarayonida xizmatlar ko'rsatilishi qamrab oladi

9. Ta'minot-moddiy-texnika ta'minoti va xodimlarni yetkaziv berish

10."Padlik releysin" bank mahsuloti-mijoz xizmatini axborot bilan ta'minlash reklama qilish, hamda bozorga kiritish. Shunday qilib boshqaruvchi ta'sirlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan bank menejmenti tizimi undan foydalalanayotganda

asosiy bank operatsiyalar va xizmatlardagi o'zgarishlarga dahlsiz qolib bank faoliyatini asosiy o'lchamlarini qamrab oladi. Barcha jarayonlar va bank tuzulishini boshqaruvchi ta'sirlarni ishlab chiqish asosida tashkiliy jihatdan qayta ko'rish strategiyasi shunday ilob borilishi lozimki toki bunda bankda ko'p yo'nalishlarga ixtisoslashsin. Bunday ixtisoslashuv tashqi muhitdagi shaxsiy ehtiyojlarga yo'naltirilgan bo'lishi va keyinchalik birgina bankmijoz uchun ishlab chiqilgan bank mahsulotlari hamda xizmatlarning hajmi va tarkibi beradigan afzalliklardan foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi. Ayni paytda yuzaga keladigan tashkiliy potentsiallardan 2 bosqichda foydalanish mumkin. Dastlab tashqi muhitdagi shaxsiy ehtiyojlarga yo'naltiriladigan zarar bank va mahsulot va xizmatlari ishlab chiqiladi. Shundan keyin bank tarkibiy bo'linmalari hamjihatlikda ishlashi zarur. Tegishli texnologik zanjirlar shakllantiriladi.

Bank mijozalarining shaxsiy ehtiyojlari uchun konkret bank mahsulotlari ishlab chiqish va tarqatish jarayoni **etirativ** jarayon bo'lib u quyidagi hatti harakatlar izchilligini o'z ichiga oladi.

- moliya bozori (uning segmanti) ahvolining tahlili hamda bankning bozor dagi ahvoli tahlili
- bank mahsuloti yoki xizmatlarini joriy etish jarayonida bartaraf etiladigan bank portfeli yoki balansdagi "Tor joylar"ni (dinamik muvozanatni) aniqlash maqsadida bankni fundamental tahlil qilish
- xizmatlar doirasini kengaytirishga ham bank yoki balansdagi muammoli vazifalarni hal etishga qaratilgan
- bank mahsuloti funksional texnologik hujjatlarni bevosita ijrosi darajasigacha batafsil ishlab chiqish
- oldindan aytib bo'lmaydigan operatsiya xarajatlarni ishlab chiqishi va neverellash maqsadida ichki meyoriy hujjatlar sifatida bank mahsuloti pilot loyihasini tayyorlash
- bank tarkibiy bo'linmalarining mazkur bank ilgari siljishini ta'minlovchi o'zaro aloqalarni ishlab chiqish hamda o'zaro bog'liqligini belgilash va jarayonlarni bank amaliy oborotiga uzil kesil joriy etish

- olingan natijalarni vaqtida chamalangan aniq maqsadli o'lchamlar bilan taqqoslash tamoyilini oshirish yoki pasaytirish, qisqartirish, kengaytirish, to'siq qoyish va boshqalar maqsadida bank portfeli tarkibiy dinamikasini o'zgartirish monitoringi

- bank mahsuloti joriy etilishi natijasida bankning xatar ekspozitsiyasida yuz bergan o'zgartirishlarni tahlil va sintez qilish

- aralash bank mahsulotlarni modellashtirish va uzil kesil tashlab chiqish

- ziddiyatlarga yo'l qoymaslik maqsadida barcha moliyaviy texnologiyalar hamda ichki meyoriy qoidalar va jarayonlar yagona mahsulot qatorini texnologik jihatdan ta'minlash

- bank mahsulotini ko'paytirish va bank mijozlarining keng doirasiga chiqish

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, bank tizimi mijozlar uchun yashaydi va mijozga xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirdangina va umrini uzaytiradi.

O'tgan yilda bank moliya sohasidagi islohatlarni chuqurlashtirish va ularning ko'lamini kengaytirish masalalari doimiy e'tiborimioz markazuda bo'lib keldi. Bu borada ko'rilgan chora tadbirlar natijasida tijorat banklarining ustav kapitali qariyb 2 barobar oshdi. Ularning jami kapitali esa 2006 yilga nisbatan 40%ga ko'paydi va 1,5 trln so'mga yetdi.

Banklarning aksiyadorlik banklarga aylantirish jarayoni jadallashmoqda, bir yil mobaynida aksiyadorlar soni 12,5 taga ko'paydi va joriy yil boshidan 200 mingtaga yetdi. Ularning 68%i esa jismoniy shaxslar tashkil etmoqda

Uchta tijorat bank tashqi iqtisodiy "Milliy bank", "Paxta bank", "Hamkor bank" yetakchi reyting kompaniyalarining xalqaro reytingiga ega bo'ldi.

1.3 Bankalar barqarorligi va moliyaviy mustahkamligini oshirishda abnk xizmatlarining ahamiyati

Banklarni yangi xizmatlarini rivojlanishida rivojlangan mamlakatlarning bank faoliyatini o'rgangan hamda, yangi xizmatlarnim joriy qilish va ularni hayotga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun Yaponiya davlatining bank xizmatlari va mijozlariga yengillik yaratish maqsadida yangi xizmat turlarini taklif qilmoqda va rivojlangan banklar moliya tashkilotlar tajribalaridan kelib chiqqan holda banklar o'z xizmatlarini yangi turlarini hayotga tadbiq etmoqdalar. Yana bir misol elektron pul to'lovlari pul tizimini shakllantirish jarayonida ISO (International Standarts Organisation) tashkil etilgan edi. U plastik kartochkalarining tashqi ko'rinishi boyicha ularga hisob varaqalar boyicha, ularga hisob varaqalarining tartib raqamini berish; magnot polosasining formati; ya'ni kartrochka egalari amalga oshiraigan operatsiyalar haqida jo'natiladigan ma'lumotlar formati boyicha ma'lum standartlarni ishlab chiqdi. ISOning eng yirik a'zolari Uisa Master Card American Bepriss kabiplastik kartochkalar elementlari hisoblanadi. So'nggi yillarda plastik kartochkalar qo'llanadigan muammolarning deyarli barchasi belgilangan xarid quvvatiga ega bo'lgan arzon plastik kartochkalarining soni ortib bormoqda. Masalan, Aqsh, Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlarda bunday kartochkalar telefon aparatlari orqali o'tkazilgan telefon suhbatlari uchun qo'llaniladi. Ular uchun umumiy xususiyat o'z qiymatlarini asta sekinlik bilan to'lov predmetiga o'tkazib borishdan iborat.

Elektron texnika yordamida to'lash xizmatlarini ko'rsatishning yana bir turi mijozning uyida yoki ish joyida xizmat ko'rsatishidir. Ayniqsa bu 80 yillarda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida avj oldi. O'z uyida elektron bank xizmatlari tizimidan foydalanuvchi mijoz bank maslahati bilan uy terminal va tegishli dasturiy ta'minotlarini sotib oladi. Bunday tizimlar mijozga shaxsiy kompyuterlar monitori yoki televizor ekranidan foydalanib, telekommunikatsiya yanada minimollik orqali bank kompyuterlariga bog'lanish imkoni beradi. Bunday hollarda bank operatsiyalari haftaning 7 kuni davomida ham, tunu-kun amalga oshirilishi mumkin. Har bir operatsiyadan oldin hisob varaq egasi tizimga ruxsatsiz

kirishidan mufoza qilish uchun yashirin tarzda kodlashtirib qoyilgan "kalitdan" foydalaniladi. Ushbu tiizmdan foydalanish joiry hisob varaqni qoyilmalarni mijozning vaziyat bilan hisob varaqlarini to'lov va jamg'arma hisob varaqlarini boshqarish imkonini beradi.

Hozirgi kunda, masalan, yapon banklari o'z mijozlarining uylariga, u;larning Nyu-York, London va boshqa joylarda ochgan hisob varaqlari holati haqida axborotlar berib boradilar. Shunday qilib, uydan chiqmasdan o'z-o'ziga bank xizmatini ko'rsatish sohasida operatsiyalni amalga oshiorishda deyarli jiddiy cheklanishlar yo'q. Bank mijozi har qanday bank operatsiyalni kun va tunning xohlagan paytida bajarishi mumkin.

Yana bir misol Fransiyada mijoz bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatgan. Aqshning esa barcha yirik banklari mijozlarning uyida xizmat ko'rsatishni taklif etishadi.

Hozirda bizning banklarimiz xizmatini yaxshilashda mijozlarga ularni qoniqtiradigan to'liq xizmatlar ko'rsatishda rivojlangan jahon banklarining xizmatlarini sharoitimizga qulay va mos bo'lgan tomonlarini banklarimizda joriy etishga harakat qilinmoqda.

O'zbekistonda banklarni rivojlantirish maqsadida banklarni yangi xizmatlarni rivojlantirish hozirgi davrning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Banklarning xizmatini yanada rivojlantirishni yangi turlarini taklif qilish korxonalar faoliyatini rivojlanishiga yanada ko'proq xizmat qiladi.

Shu maqsadda banklar yangi xizmat turlarini taklif qilmoqda. Bula rquyidagilar.

1. Ipoteka krediti
2. Iste'mol krediti
3. Plastik kartochkalar
4. Kommunal to'lovlar
5. Elektron to'lovlar
6. Bankomatlar
7. Ofisdan turib bank operatsiyalarini bajarish

8. Vester Yunion va boshqalar

1. Ipoteka kreditlari yasah joyida royxatdan o'tgan shaxslarga kredit muddatini belgilangan holda 18 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqoroligi beriladi.

Kreditlash ob'ekti bo'lib birlamchi va ikkilamchi b ozorda sotiladigan uy-joylar ya'ni foydalanilayotgan va ko'p qavvatli turar joylardagi alohida kvartiralar hisoblanadi. Ipoteka shartnomasi-kredit shartnomasi boyicha qarzdorlikni kamaytirish sifatida sotib olayotgan uy-joy garovini belgilash haqida tomonlar shartnoma tuzadilar.

Ipoteka krediti boyicha ta'minotga majburiy talablar quyidagilardan iborat:

- Boshlang'ich badal mablag'ning miqdori sotib olinadigan uy-joy umumiy qiymatining kamida 2,5 foizini tashkil etishi;
- Ipoteka (kredit hisobiga sotib olinadigan uy-joy garovi
- Kreditning to'liq davri davomida qarz oluvchining hayoti va mehnatga layoqatini sug'urta qilinishi
- Kreditning to'liq davri davomida garovga beriladigan uy-joyi sug'urta qilinishi
- Har bir qarz oluvchiga beriladigan kredit summasi eng kam ish haqining 2500 barobari miqdoridan oshmagan holda belgilanadi
- Uy-joy sotib olish uchun beriladigan kredit 10 yil muddatga 6 oylik imtiyozli davr beriladi. Ipoteka krediti sotib olinadigan uy-joy qiymatining 75% miqdoridacha beriladi.

Qarz oluvchining kredit olish jarayonidagi amalga oshiradigan xarajatlari:

- Mulk qiymatini baholashda amalga oshiruvchi to'lovlar:
- Uy-joy sotib olish bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish xarajatlari
- Kreditning to'liq davrida sotib olingan uy-joyi qarz oluvchining hayotini va mehnat layoqatini sug'urat qilish badallari
- Bankning ta'riflariga muvofiq boshqa xaraajtalr
- Qarz oluvchi kreditni rasmiylashtirish uchun quyidagi hujjatlarni bankga taqdim etadi

- Qarz oluvchining pasporti pensiya jamg'arma daftarchasining asl nusxasi taqdim etiladi.

- Qarz oluvchining boshlang'ich badali to'langanligini tasdiqlovchi hujjat

- Yashash joyidan olia tarkibi haqida ma'lumotnoma, oilaning voyaga yetgan va voyaga yetmagan a'zolari shaxsinim tasdiqlovchi hujjatlarning asl nusxasi taqdim etiladi.

- Qarz oluvchi tomonidan oxirgi 12 oyda asosiy va qo'shimcha ish joyidan olingan daromadlar va qiymatlar miqdori haqida ma'lumotnoma yoki qarz oluvchi yashash boyicha soliq organlari tomonidan tasdiqlangan daromatlari haqidagi deklaratsiyalar nusxasi

- Qarz oluvchining ish beruvchi tomonidan tasdiqlangan so'ngi, ya'ni hozirgi ish joydan mehnat shartnomasi va mehnat daftarchasidan nusxa:

- Uy-joyni sotib olish uchun tuzilgan shartnoma va boshqalar. 2. Istemol kredit-bu aholining istemol talablarini qondirishga yordam beruvchi kredit bo'lib, u jismoniy shaxslarga qaytarishlilik, maqsadlilik, talablik, muddatlilik va ta'minlanganlik shartlari bilan ajratiladi.

Iste'mol kredit faqat ифдшпәфе yoshiga yetgan va muomala layoqatiga ega doimiy yashash joyiga ega, royxatdan o'tgan shuningdek, doimiy ish yoki qonuniy boshqa daromad manbaiga ega bo'lgan yoshi 18 ga to'lgan va 55 yoshdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolarigina beriladi.

Iste'mol krediti 25 minim al ish haqidan ortiq bo'lgan buyurtmalar boyicha uch oydan uch yilgacha 500 minimal sih haqidan oshmagan holda milliy valyutada ajratiladi. Istemol krediti boyicha foiz stavkalari O'z. Res. Markaziy banklarining qayta moliyalash stavkasi miqdorida belgilanadi. O'z. Res. Da ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xarid qilish uchun istemol krediti foiz stavkalari qayta moliyalash stavkasining 0.75 foizni tashkil qiladi.

Istemol krediti faqatgina maishiy va shaxsiy ehtiyojlari uning hisobiga sotib olinadigan tovarlarning bir turi ikkitadan oshmasligi lozim. Kredit buyurtmalarining rejasiga klo'ra turli istemol tovarlarning bir yo'la sotib olishga yo'naltrish mumkin.

Istemol krediti quyidagi taminot turlari biri yoki bir nechta asosida berilishi mumkin.

- Mijozga tegishli bo'lgan ko'char va ko'chmas mulk shu jumladan qimmatbaho buyumlarni yoki qimmatbaho qog'ozlar garovi;
- Qarz oluvchining depozitlari va qimmatbaho qog'ozlari joylashgan boshqa bank kafolati;
- Qarzdor tomonidan kreditni qaytarmaslik xatarini qaytarilmaslik to'g'risida sug'urat kompaniyasining sug'urta polisi;
- Qonunchilikda ko'zda tutilgan tarkibda tashkil etilgan sug'urta kompaniyasining krediti oluvchiga kelgusida to'lanadigan sug'urta summalari hisobiga kafolat;
- Moliyaviy barqaror yuridik shaxslar kafilligi;
- Notarial guvohlantirilgan ikki va undan ortiq jismoniy shaxsning kafilligi qilingandan keyin qilinadi.

Funksional belgilarga qarab plastic kartochkalarni bir necha guruhga ajratish mumkin. Eng avvalo magnitli va electron kartalarni farqlamoq kerak.

Magnit kartalarni 37 yil avval sayohatga chiqqan biznesmenlarga xizmat ko'rsatish uchun chiqarilgan edi. 1993 yilda faqat G'arb mamlakatlarining o'zida ikki mlrd dan ortiq shunday kartochkalar bor edi. Ularning 5 xil turi tarqalgan. Ular quyidagilar:

1. Kredit kartalar
2. To'lov kartalar
3. Ijrochi kartalar
4. Kafolatlangan chek kartalar
5. To'lov qobilayati belgilangan kartalar

Electron kartalarning esa ikki xil turi bor:

- Mikroprosessorli
- Lazerli kartalar

